

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

## INGLIZ TILIDA METAFORANING BADIY USLUBDA IFODALANISHI PAULO KOELONING “ALKIMYOGAR” ASARI MISOLIDA

**Ro'zmetova Shohida Ravshanbek qizi**

Urganch Davlat Pedagogika Instituti

Filologiya va tarix fakulteti,

Xorijiy filologiya kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi

[ruzmetova.shohida9119@gmail.com](mailto:ruzmetova.shohida9119@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikda eng ko'p qo'llaniladigan ko'chirma turi hisoblangan metafora haqida so'z yuritiladi va aynan butun dunyoda kitobxonlar tomonidan eng ko'p sevib o'qiladigan bestseller asar Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarida qo'llanilgan metaforalar izohlanadi. Shuningdek ingliz tili va o'zbek tilidagi mazkur asar tarjimasida qo'llanilgan betakror metaforalar har ikki tilda qay tarzda ifodalanishi o'xshash va farqli jihatlari aniq misollar bilan ko'rsatilgan.

**Аннотация.** В этой статье говорится о метафоре, которая считается наиболее используемым типом цитаты в лингвистике, и объясняются метафоры, использованные в бестселлере Пауло Коэльо «Алхимик», пользующемся наибольшим успехом у читателей во всем мире. Также показаны уникальные метафоры, использованные при переводе данного произведения на английский и узбекский языки, с наглядными примерами того, как они выражены на обоих языках.

**Abstract.** Abstract. This article talks about metaphor, which is considered the most used type of quotation in linguistics, and explains the metaphors used in Paulo Coelho's bestseller The Alchemist, which is the most loved by readers all over the world. Also, the unique metaphors used in the translation of this work in English and Uzbek are shown with clear examples of how they are expressed in both languages.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, til, metafora, o'xshatish, an'ana, expressivlik, qisqargan o'xshatish, o'xshatish subyekti, o'xshatish obyekt.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

**Ключевые слова:** языкознание, язык, метафора, сравнение, традиция, выразительность, редуцированное сравнение, предмет сравнения, объект сравнения.

**Key words:** linguistics, language, metaphor, simile, tradition, expressiveness, reduced simile, subject of simile, object of simile.

Jahon vao`zbek yozuvchilari o`z asarlarida metaforalardan juda keng foydalanadilar. Metafora - adabiyot uchun tomchi suvdek muhim. Chunki yozuvchilar yoki shoirlar o`z asarlariga badiiy bo`yoq berish uchun yoki bo`yoqdorlikni yaratish uchun metaforalardan juda ko`p foydalanishadi. Ba`zan esa bir metafora butun bir gapning tarjimasi ham bo`lishi mumkin, agar bu vosita olib tashlansa, matn o`z ma`nosini yo`qotishi ham mumkin. Metafora quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Metaphors can make prose more muscular or imagery more vivid. Metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.
2. Writers frequently turn to metaphors to describe people in unexpected ways. Odatda yozuvchi metaforadan odamlarning turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash uchun ishlatadi.
3. Metaphors can help “visualize” a situation or put an event in context. Metafora mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq contextda tushunishga yordam beradi
4. To entertain and tickle the brain, metaphor examples sometimes compare two extremely unlike things. Ba`zan bu san`at turi orqali ikkita bir-birga o`xshamagan narsalar taqqoslanadi.
5. Metaphors can help frame abstract concepts in ways that readers can easily grasp. Metafora mavhum tushunchalarning o`quvchi uchun tushunarli yo`llar bilan yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Bunda eng asosiysi yozuvchining metaforadan foydalana olish va badiiy tasvir vositalaridan farqlayolish qobiliyatiga hamda ushbu vositadan foydalanishining aniq maqsadiga uzviy bog`liqdir. Sababi o`quvchiga bir mavhum tushunchani aniq holda yetkazib berish yoki kam so`z orqali ko`p ma`no anglatuvchi jumlar yaratish kitobxonning kitob mutoolasi jarayonida duch kelishi mumkin bo`lgan tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim hisoblanadi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Endi Paulo Koeloning” Alkimyogar” qissasida qo‘llanilgan metaforalarni tahlil qilishdan oldin uning hayoti va ijodiy asarlaridagi jozibadorlik, ma’no ko‘chimlaridan qanday ustalik bilan foydalanib kitobxonlar ko‘nglidan joy oluvchi betakror ijod namunalarini yaratishlari haqida ma’lumotlar beramiz.

Paulo Koelo bugungi jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan biridir. U Braziliyada yashaydi, portugal tilida ijod qiladi. Uning romanlari jahonning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan. XX asrning 90-yillarida yaratilgan «Alximik» va «Beshinchi tog‘» romanlari, ayniqsa, katta shuhrat qozondi.«Alximik»ni ajoyib ibratli ertak, deb ham atashadi. Adibning o‘zi yozganidek, romanda hikoya qilingan yosh cho‘pon yigit Santyagoning sayohati bilan bog‘liq voqealar asosida yotgan tub ma’no-mazmun — bu «O‘z Taqdiring» tushunchasidir.

**Muallifning so‘zlariga ko‘ra, unga yozish uchun atigi o‘n besh kun kerak bo‘lgan.** Garchi birinchi nashr 900 nusxada sotilgan bo‘lsa-da, braziliyalik yozuvchining qat’iyati o‘z samarasini berdi . 1990-1998 yillarda asar 50 dan ortiq nashrni qo‘shib, kelgan o‘n million nusxadan oshdi.<sup>1</sup>

**Paulu Koeloning “Alkimyogar” qissasida** men quyidagi metaforaga oid misollarni topdim:

- “Insonning Yerdagi umri mobaynida amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat? O‘z taqdiri yo‘ldan borib, ko‘ngliga tukkan orzu-umidlarini amalga oshirishi uchun insonga eng zarur narsa nima?..”<sup>2</sup>
- Romanda hikoya qilingan cho‘pon bola Santyagoning sayohati bilan bog‘liq voqealar asosida yotgan tub ma’no-mazmun— bu “O‘z Taqdiring” tushunchasidir. “O‘z taqdiring” nima degani? Bu Xudo tomonidan bizga buyurilgan, umrimiz mobaynida ado etishimiz lozim bo‘lgan oliy majburiyat, har qaysimizning bosib o‘tdigan o‘z yo‘limizdir. Biz har safar biror-bir amalni quvonch va hafsala bilan bajarganimizda, o‘z taqdirimizga mos tarzda ish tutgan bo‘lamiz. Biroq yorug‘orzu-niyatlarga peshvoz chiqishday baxtga erishmoq uchun bu yo‘ldan matonat bilan o‘tish har kimga ham nasib etavermaydi.

Bu jumalarda yozuvchi “taqdir yo‘li” iborasini ishlatgan. Aslida yo‘l real olib qaraganda o‘z ma’nosida biz bosib o‘tdigan yo‘lak, ko‘chadir. Taqdir yo‘li esa majoziy ma’noda umrimiz davimida biz kechirgan kechmishlar, yaxshi-yomon

<sup>1</sup><https://www.actualidadliteratura.com/uz/Alkimyogar/>

<sup>2</sup>Paulo Koelo “Alkimyogar” Toshkent-2022 3-bet

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

kunlarimiz va undan olgan saboqlarimiz, biz uchratgan insonlar-u ular bizga bergan saboqlardir. Barchasi taqdir yo‘limizda biz guvoh bo‘lgan vaziyatlar ekanligi chiroyli metafora bilan ifodalangan.

■ “Xo‘sh, nima uchun hammaning ham istak vaorzulari ushalavermaydi? Bunga to‘rtta to‘siq xalal beradi. Birinchisi shundan iboratki, go‘daklik paytdayoq, hayotda erishishni juda istagan narsalarga intilganimizda, yo‘q, bu narsalarga erishib bo‘lmaydi, degan gapni quloqqa quyib qo‘yishadi. Bola: harchand urinmay, baribir o‘zim xohlagan narsaga erisholmayman, degan fikr bilan ulg‘ayadi. Shu tariqa, yillar mobaynida qalbida turli xil shubha-gumonlar vaqo‘rquvlar ildiz otadi, umidsizlik va aybdorlik tuyg‘usi kuchayib boradi.”<sup>3</sup>

Bilamizki, to‘siq bu biron narsaning yo‘lini to‘suvchi g‘ovdir. Insonning o‘z maqsadiga yetishtirishga to‘siq bo‘lish esa majoziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib shu niyatimizning amalga oshishi uchun ko‘rinmas g‘ov bo‘lib xizmat qilayotgani ajoyib metaforik birikma bilan ifodalangan.

■ “Va bir kun kelib, O‘z Taqdirini yashash istagi shu og‘ir yuk ostida qolganini anglaganda, o‘ziga in’om etilgan oliy imkonni yo‘qotib qo‘yganday tuyuladi. Biroq aslida bu imkon uning qalbida yashayotgan bo‘ladi. Shunga qaramay, kishi qalbi tubidagi orzu-niyatini yuzaga chiqarishga, amalga oshirishga bel bog‘lab kirishguday bo‘lsa, uni yana bir sinov kutadi: bu— sevgi, mehr-muhabbatdir.”

Bu ifodalarda “og‘ir yuk” ifodasi ko‘chma ma’noda qo‘llanagn bo‘lib, Og‘irligi ma’lum massaga teng bo‘lgan yuk emas, balki tazyiq va dardi, ushalmagan orzusi yoki zimmasidagi mas’uliyat va vazifalar shu metaforik timsol bilan ifodalanmoqda.

■ “Insonga chindan yaxshilikni ravo ko‘radigan, unga doimo yelkasini tutishga shay odam uni tushunishga va qo‘llab-quvvatlashga tayyor bo‘ladi. Kishi sevgining to‘siq emas, balki tayanch ekanligini anglab yetgan chog‘da, unga uchinchi to‘siq xavf soladi: bu— omadsizlik va mag‘lubiyatlardan qo‘rqish tuyg‘usi. O‘z orzulari yo‘lida kurashayotgan odam boshqalardan ko‘ra kuchliroqzahmat chekadi, harakatlari zoye ketayotgan damlarda esa u, odatdagiday, “bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa g‘ovlab ketar”, degan maslakka iyak suyamaydi.”

---

<sup>3</sup>PauloKoelo “Alkimyogar” Toshkent-2022, 4-bet

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 10

Bu jummalarda esa “to‘siq va tayanch” bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar qo‘llanilib o‘zgacha metaforik joziba kasb etgan. Barchaga ma’lumki, tayanch bu biron narsani ushlab muvozanatda turishiga yordam beruvchi vosita hisoblanadi, sevgining “tayanch” deb ifodalanishi esa bu mo‘jizaviy tuyg‘uning insonga ilhom berishi, qiyin vaziyatlarda inson umidsizlikka uchragan paytlarda unga ilinj bera olishi, inson jabr chekkan vaziyatlarda yana oyoqqa turib o‘zini o‘nglashi uchun beradigan ilhomi chiroyli metaforik ifoda sifatida qo‘llanilgan.

Ko‘rib turganimizdek metafora har ikki tilda o‘ziga xos joziba kasb etgan va tarjimonning mahorati tufayli bazi bir metaforalar har bir tilning o‘ziga xos xususiyatiga asoslanib qo‘llanilgan. Binobarin metafoarning badiiy asarda qo‘llanilishi o‘ziga xos tasirchanlik expressivlik ma’nolarini kuchaytirgan.

## References:

Paulo Koelo “Alkimyogar” Toshkent-2022

Paulo Coelho “The Alchemist”

Maruzo J. Dictionary of linguistic terms. - M.: URSS, 2004.

M. Mirzayev, S. Usmanov, I. Rasulov. Uzbek language. -T.: Teacher, 1970.

Mirtojiyev M. Polysemy in the Uzbek language. - T.: Science. 2010.

Mirtojiev M. Semasiology of the Uzbek language. - Tashkent: Classic word. 2010.

Revised, updated 3rd edition. - T.: Ilm Ziya, 2010. - 223 p.

<https://uz.warbletoncouncil.org/metafora-ejemplos-3279>